Dastlabki ma’lumotlar

# 2021- yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 200,7 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar - 2 156,2 mlrd. so‘mni (103,4 %), o‘rmon xo‘jaligi - 39,6 mlrd. so‘mni (101,8 %), baliqchilik xo‘jaligi - 4,9 mlrd. so‘mni (125,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.




**2 200,7** — Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **2 156,2** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **39,6** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **4,9** — Baliqchilik xo‘jaligi

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2021- yilning yanvar - mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98,0 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,8 % i - o‘rmon xo‘jaligi, 0,2 % i - baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2021- yilning yanvar - mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Denov (380 mlrd. so‘m) va Sherobod (214 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (6 mlrd. so‘m), Bandixon (36 mlrd. so‘m) va Qiziriq tumani (54 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,4 %) yuqori o‘sish sur’atlari Termiz (112,9 %), Sherobod (106,0 %), Bandixon (105,0 %) va Muzrabot (103,6 %) tumanlarida kuzatildi. Oltinsoy (103,2 %), Qumqo‘rg‘on (102,9 %), Boysun va Denov tumanlarida (102,8 %), Sho‘rchi (102,6 %), Angor va Jarqo‘rg‘on tumanlarida (102,5 %), Uzun (102,3 %), Qiziriq (101,9 %), Sariosiyo (100,9 %) tumanlarida hamda Termiz shahrida (100,7 %) esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2 144,1 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 326,8 mlrd. so‘mni (105,1 %), chorvachilik mahsulotlari – 1 817,3 mlrd. so‘mni (103,0 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 85,5, % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 10,9 % i – fermer xo‘jaliklariga, 3,6 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2021- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Denov tumanida (35,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (99,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Termiz tumanida (33,5 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Jarqo‘rg‘on tumanida (1,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Denov tumanida (62,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun tumanida (0,1 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2021- yilning yanvar - mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 326,8 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 15,2 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 19,3 ming t. sabzavot (2020- yilning yanvar-martiga nisbatan 5,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2021- yilning yanvar - mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1 817,3 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 84,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2021- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 34,6 ming t. go‘sht (2020- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,5 % ga ko‘p), 137,3 ming t. sut (1,3 % ga ko‘p), 100,2 mln. dona tuxum (7,9 % ga ko‘p), 70,0 t. jun (1,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 321,1 t. baliq (30,4 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 34,6 ming t. go‘sht (2020- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 137,3 ming t. sut (2020- yilning yanvar - martiga nisbatan 1,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 97,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 100,2 mln. dona tuxum (2020- yilning yanvar - martiga nisbatan 7,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 61,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 321,1 t. (2020- yilning yanvar - martiga nisbatan 30,4 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 53,3 % i fermer xo‘jaliglari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021- yining 1- aprel holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,3 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga, 93,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 1,5 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri kelishini qayd etib oʻtish lozim, shunga mos ravishda qoʻy va echkilarning umumiy sonidan 17,2 % i fermer xoʻjaliklariga, 80,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 2,3 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʼri keladi, otlar umumiy sonidan 23,3 % i fermer xoʻjaliklariga, 74,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 1,9 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 5,3 % i fermer xoʻjaliklariga, 52,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 41,8 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi.

2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 967,8 ming boshga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 20,1 ming boshga (2,1 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 353,5 ming boshga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 7,4 ming boshga (2,1 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 396,2 ming boshga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni - 46,7 ming boshga (2,0 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 80,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 14 414 taga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 69 taga (0,5 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 74,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 279,0 mingtaga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 139,3 mingtaga (2,7 %) kamaydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 52,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

- 76-225-65-78